



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Ostonokulov Azamat Abdurakimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025

Accepted: 30 August 2025

Published: 15 Ceptemper 2025

Article / Original Paper

DISTINCTIVE FEATURES OF ROMANTICISM AND ITS MAIN REPRESENTATIVES

Begmatova Sitora Bekzod qizi

Urgut Branch of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Faculty of Pedagogy and Language Teaching

1st-year student, Department of Vocational Education and Labor Training

E-mail: sitorabegmatova157@gmail.com

Scientific leader: doctor of Philosophy (DSc) Associate Professor Z.Yazdonov

SamSU Urgut branch

Abstract. The article analyzes the features of romantic literature, its historical and cultural context, as well as the most significant writers and their works. Romanticism is an important movement in literature that emerged in the 19th century and introduced innovations into its development. The article also analyzes changes in literary genres and styles of romanticism, as well as the essence of the romantic movement, the features of its manifestation in European and modern Uzbek literature. The goal is to shed light on the evolution of romantic literature and its role in the formation of cultural values.

Keywords: Romanticism, sufism, pantheism, slavery, feudalism, capitalism, socialism, epithet, simile, metaphor, personification, giperbola, hyperbole, lyricism, realism.

ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI

Begmatova Sitora Bekzod qizi —

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'TVA yo'naliishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: falsafa fanlari doktori (DSc) dotsent Z.Yazdonov

SamDU Urgut filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada romantizm adabiyotining xususiyatlari, uning tarixiy va madaniy konteksti, eng muhim adiblar va ularning asarlari tahlil qilinadi. Romantizm adabiyoti XIX asrda yuzaga kelgan va adabiyotda yangiliklar yaratgan muhim oqimdir. Shuningdek, romantizmning adabiy janrlar va uslublaridagi o'zgarishlar, shuningdek maqolada romantizm yo'nalishining mazmun-mohiyati, uning Yevropa va zamonaviy O'zbek adabiyotidagi namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu orqali romantik adabiyotning evolyutsiyasi va uning madaniy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni yoritilishi ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: Romantizm, sufizm, panteizm, quidorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm, epitet, o'xshatish, metafora, jonlantirish, giperbola, lirizm, realizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N16>

Kirish. Romantizm adabiyoti XIX asrda yuzaga kelgan va adabiyotda, san'atda, falsafada yangi yo'nalish sifatida shakllangan muhim estetik oqimdir. Romantizm o'zining ma'naviy va estetik xususiyatlari bilan ajralib turadi va asosan xuruj, hissiyot va individualizmdan iborat

edi. Ushbu oqimda insonning ichki dunyosi, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, ma'naviy va falsafiy savollar muhim o'rIN tutadi. Romantizmning asosiy tamoyillari va xususiyatlari adabiyotda yangiliklar yaratdi va adabiyotning boshqa janrlari, shuningdek, san'at va madaniyatga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, romantizm adabiyoti ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, milliy uyg'onish jarayonlari va inson huquqlari haqidagi yangi qarashlar bilan bog'liq bo'lib, o'z vaqtida butun dunyo bo'ylab katta ta'sir ko'rsatdi. Maqolaning asosiy qismida romantizm adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish jarayonlari, asarlarning tahlili va romantizm adabiyotining jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. XVIII–XIX asr G'arb adabiyotida keng yoyilgan romantizm yo'nalishi ham ana shunday adabiy oqimlardan biri bo'lib, insonning ichki dunyosi, orzu-umidlari, ruhiy iztiroblari, tabiat va muhabbat mavzularini ilgari surdi. Bu yo'nalish realizmga qarshi reaksiya sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'zining falsafiy chuqurligi, emotsional kuchi va estetikasiga ega bo'lgan yirik adabiy oqim sifatida tarixda muhim o'rIN egalladi. Romantik metodning asosiy xususiyatlaridan yana biri har qanday jamiyat (quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm)ning antigumanistik mohiyatini doimo fosh etish va qoralashdir. Ijodda va hayotda erkinlik, shaxs ozodligi va komilligi uchun kurashdir. Bu xususiyat hamma romantik ijodkorlar faoliyatida pafos darajasiga ko'tarilgan, o'lmaydigan ruh bag'ishlaydigan «hamma xalqlarda va hamma zamonlarda umumiy bo'lgan hodisadir» (V. G.Belinskiy). [6, 112 b]

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqotda romantizm yo'nalishining mazmun-mohiyati, uning Yevropa va zamonaviy O'zbek adabiyotidagi namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu orqali romantik adabiyotning evolyutsiyasi va uning madaniy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni yoritilishi ko'zda tutiladi.

Ushbu ilmiy maqolada romantizm adabiy yo'nalishining XVIII–XIX asr Yevropa va XXI asr O'zbek adabiyotidagi o'rni va namoyon bo'lish shakllarini qiyosiy-tahliliy asosda o'rganish usuli qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlarga tayandik: Tarixiy-tipologik usul, qiyosiy-tahliliy usul, matnshunoslik va poetik tahlil, falsafiy-estetik yondashuv. Tadqiqotda ilmiy manbalar, adabiy tanqidiy maqolalar, adiblarning asl matnlari va ularning tarjimalari asosiy material sifatida xizmat qildi. O'rganilayotgan adabiy namunalarda romantizmning estetik va badiiy ifoda vositalarini aniqlash orqali mavzuning mohiyati yoritildi. Ushbu ilmiy maqolada romantizm yo'nalishi yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar romantik adabiyotning turli bosqichlari va milliy kontekstlarida keng ko'lama o'rganilgan. XVIII–XIX asr Yevropa adabiyotida romantizm adabiy-estetik qarashlar inqiroziga javoban shakllangan bo'lib, u insoniyatning ichki kechinmalari, orzulari, tabiat bilan uyg'unlik va erkinlik g'oyalalarini ilgari surdi. Yevropa adabiyotshunosligida Gyote, Bayron, Gyugo singari adiblarning ijodi romantizmning yetuk namunalari sifatida baholangan. Jumladan, Harold Bloom va Isaiah Berlin kabi tadqiqotchilar romantik adabiyotning mohiyatini inson individualligi, his-tuyg'ular erkinligi va irratsional holatlarni tasvirlashga urg'u bergen yo'nalish deb tavsiflaydilar. [7]

Shundan dalolat beruvchi asar sifatida Novalisning "Genrix fon Ofterdingen" nomli romanini eslash mumkin. Novalis kitobxonni o'rta asrlarga boshlab o'tish va bosh qahramon sifatida XVIII asr Germaniyadagi shoir Minenzigerdi tanlash yo'li bilan o'sha davr hayotini ideallashtirdi, u insonning aql-idroki va ijtimoiy intilishlarini ahamiyatsiz, deydi. Ilg'or romantizmning dastlabki rivoji XIX asr boshlarida Angliyada sodir bo'ldi ham Bayron va Shell singari ajoyib shoirlar ijodida ko'rindi. Adabiyotshunoslar Sh.Sirojiddinov, O.Matjonov,

M.Xudoyqulovlar zamonaviy o'zbek she'riyati va nasridagi ruhiy-falsafiy izlanishlarni romantik an'analar bilan bog'laydi. Usmon Azim, Muhammad Yusuf kabi adiblarning ijodi milliy ruh, muhabbat, orzular va tarixiy xotiralarni zamonaviy romantik uslubda yoritgan asarlar sifatida turli ilmiy ishlar va adabiy tahlillarda e'tirof etilgan. Bu asarlar o'zbek adabiyotida romantik obrazlar, lirizm va ruhiy iztiroblarning zamonaviy qiyofasini ifodalaydi. Tadqiqot davomida XVIII–XIX asr Yevropa adabiyotida shakllangan romantizm oqimi inson tafakkurining erkinligi, his-tuyg'ularning ustuvorligi va tabiatga yaqinlik g'oyalari bilan ajralib turishi aniqlandi. Romantik asarlarda voqeа-hodisalar va qahramonlar boshqa tarixiy davr va mamlakatlarga ko'chirib tasvirlanadi. «Farhod va Shirin» (A. Navoiy) dostonida voqeа-hodisalar avval Chin (Xitoy)da, so'ng Arman o'lkasida yuz beradi. Farhod, Bahrom – xitoylik, Mehinbonu, Shirin – armani, Shopur, Xisrav, Sheruya – eronlik. Holbuki, bu qahramonlar xarakteri, a'moli, ruhi bilan o'zbeklarga tegishlidir, undagi voqeа-hodisalar asosida Navoiy davri hayotining tipik manzaralari o'z aksini topgandir. Insoniylikni ulug'lash, ezgulikni kuylash, muhabbat va sadoqatni yuksak darajada madh etish, unga ishontirish romantizmning eng xarakterli alomatidir. Unda hayotni judayam ko'tarinki ruhda, serjilo bo'yoqlarga boy tarzda, yorqin va nozik ifoda etish – xislatga aylanadi va bu xislat kitobxon qalbini larzaga soladi Tasviriy vositalar masalasida shuni aytish lozimki, romantizm vakillari ko'pincha hayajonli, ko'tarinki, ya'ni, ekzotik, mubolag'ali xayoliy idealni aks ettirishga uringanlar. Chunki romantizm mavjud hayotdan qoniqmay, undan o'zgacha, yaxshiroq turmushni orzu qilishga tayanadi. Xuddi shu maqsadda romantizmga epitet, o'xshatish, metafara, jonlantirish, giperbola va boshqa badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan. Romantizm adabiy oqimi XVIII–XIX asr Yevropa adabiyotida insoniy his-tuyg'ular, orzular, tabiat va shaxs erkinligini madh etuvchi g'oyalalar asosida shakllangan. Gyote, Bayron, Gyugo kabi adiblar romantizmning tipik vakillari bo'lib, ularning asarlarida shaxsiy iztirob, muhabbat, jamiyatga qarshi ruhiy isyon markaziy o'rinni egallagan. [8]

O'zbek romantizmi Yevropa romantizmidan farqli o'laroq, milliy ruh va qadriyatlar, tarixiylik, xalq og'zaki ijodi elementlari bilan boyitilgan bo'lib, bu yo'nalihsining o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Yevropa va O'zbek romantikasi o'rtasida ruhiy kechinma, yolg'izlik, idealga intilish va tabiat tasviri singari umumiy badiiy mezonlar mavjud, biroq ularning ifodalanish shakllari va estetik mezonlari madaniy muhitga qarab farqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, romantizm adabiy yo'naliishi turli davrlarda va madaniy muhitlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Yevropa romantizmi asosan shaxsiy kechinma va individualistik qarashlarga asoslangan bo'lsa, o'zbek adabiyotidagi romantizm ko'proq ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega, unda xalq ruhiyati, tarixiylik va milliy qadriyatlar chuqur ifoda topgan. Muhokamadan ma'lum bo'ldiki, romantizm faqat bir tarixiy davr mahsuli emas, balki u zamonaviy adabiyotda ham dolzARB va yangicha poetik shakllarda davom etayotgan jarayondir. XXI asr O'zbek adabiyotida romantik g'oyalarning mavjudligi bu yo'nalihsining hozirgi davr o'quvchisi ruhiyatiga hamohang ekanini ko'rsatadi.

Romantizm adabiyoti o'zining hissiy va ideologik xususiyatlari bilan adabiyotda yangi bir davrni boshladi. U avvalgi klassik asarlarda uchraydigan qat'iy tartiblar va qoidalarga qarshi turib, erkinlik, individualizm va hissiyotlarga asoslanadi. Shuningdek, romantizm jamiyatdagi o'zgarishlarga, inson huquqlari, tabiat va milliy qadriyatlar masalalariga katta e'tibor qaratdi. Romantizm adabiyotining eng muhim natijalaridan biri uning ko'plab yangi janrlar va

uslublarning yuzaga kelishiga turtki bo'lgani. Ushbu oqimning zamonaviy adabiyotdagi o'rni ham beqiyosdir, chunki u ko'plab yangi estetik qarashlar va g'oyalar yaratdi.

Shuningdek, romantik adiblar ijodidagi erkinlik, orzular va ideallar timsoli har bir davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy holatiga uyg'un tarzda ifodalanadi. Bu esa romantizmni universallashtiradi va uni har bir adabiy makonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga imkon yaratadi. Adabiyotlarning umumiylahili shuni ko'rsatadiki, romantizm – bu faqatgina bir davr yoki oqim emas, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini badiiy ifoda etish imkonini beruvchi adabiy-estetik fenomen bo'lib, u turli davr va xalqlarning adabiyotida o'ziga xos talqinlarda namoyon bo'ladi. [4]

Xulosa. Romantizm yo'nalishi, nafaqat adabiy jarayonlarning muayyan bosqichi, balki inson tafakkuri, ruhiyati va ichki dunyosining badiiy ifodasi sifatida o'zining doimiy dolzarbligini saqlab kelayotgan adabiy-estetik hodisadir. XVIII–XIX asr Yevropa adabiyotida romantizm jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, aqlparastlikka qarshi norozilik va shaxsiy erkinlikka intilish natijasida yuzaga kelgan. Gyote, Bayron, Gyugo kabi adiblar bu yo'nalishning eng yirik vakillari sifatida inson qalbining murakkab kechinmalarini, tabiat bilan uyg'unlikni va ideallarga intilishni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaganlar. Tadqiqotda aniqlanishicha, XXI asr O'zbek adabiyotida ham romantik g'oyalar o'z ifodasini topmoqda. Biroq bu romantizm Yevropa an'analaridan farqli ravishda milliy ruh, tarixiy xotira, xalqona obrazlar va falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashgan.

Xulosa o'rnida yana shuni aytishimiz mumkinki, Romantizm adabiyoti XIX asrda adabiyotda, san'atda va falsafada yangi bir davnri boshlab berdi. Uning asosiy tamoyillari, ya'ni idealizm, erkinlik, hissiyotlar va individuallikka bo'lgan e'tibor, adabiyotda yangi uslublar va janrlarning shakllanishiga olib keldi. Romantik adabiyot dunyoqarashni o'zgartirdi va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi. Bu oqimning eng yirik vakillari, masalan, Gyugo, Pushkin va Gyote o'z asarlari bilan romantizmni cheksiz yuksaltirdilar. Shu bilan birgalikda Xurshid Davronning tarixiy-falsafiy lirikasida, Usmon Azimning poetik tafakkurida yoki Muhammad Yusufning samimiylar lirikasida ko'zga tashlanadigan romantik unsurlar zamonaviy o'zbek adabiyotida bu yo'nalishning hayotiyligini ko'rsatadi. Yevropa va O'zbek romantizmi o'rtasidagi o'xshashliklar – inson ruhiyati, muhabbat, orzular, yolg'izlik, tabiat tasviri kabi mavzularda yaqqol namoyon bo'lsa, farqlari esa ularning madaniy, tarixiy va estetik kontekstlari bilan belgilanadi. Yevropa romantizmi ko'proq individualistik ruhda bo'lsa, o'zbek adabiyotida bu yo'nalish ijtimoiy va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holatda ifodalanadi.

Adabiyotlar/Litteratura/References:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. –T.: Fan, 1978-1979.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. 14-tom. –T.: Fan, 1967.
3. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. –T.: «Yangi asr avlod», 2004.
4. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. –T.: O'zbekiston, 1993.
5. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.
6. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-2004.
7. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyoti NMIU. 2017.
8. Berlin, I. The Roots of Romanticism. Princeton University Press, 1999.
9. U.Jo'raqulov, K.Hamroyev. Qiyoziy adabiyotshunoslik. (O'quv qo'llanma). – T.: "Lesson press" nashriyoti, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).